URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.FM.55.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

RO‘ZMETOV MUROD MARKSOVICH

MOSLANGAN MANBALI TODA TENGLAMASI VA UNING UMUMLASHMALARINI TESKARI SPEKTRAL MASALA USULIDA INTEGRALLASH

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Urganch – 2024

UDK: 517.957

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical-mathematical sciences

Ro'zmetov Murod Marksovich
Moslangan manbali Toda tenglamasi va uning umumlashmalarini teskari spektral masala usulida integrallash ……………………………..……………………… 3

Рузметов Мурод Марксович
Интегрирование уравнения Тоды с самосогласованным источником и его обобщений методом обратной спектральной задачи ……………...………… 21

Ruzmetov Murod Marksovich
Integration of the Toda equation with a self-consistent source and its generalizations by the inverse spectral problem method ……………………….. 41

E'lon qilingan ishlar ro'yxati
List of published works
Список опубликованных работ……………………………………………45

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.FM.55.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

RO‘ZMETOV MUROD MARKSOVICH

MOSLANGAN MANBALI TODA TENGLAMASI VA UNING UMUMLASHMALARINI TESKARI SPEKTRAL MASALA USULIDA INTEGRALLASH

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Urganch – 2024

Fizika-matematika fanlari boʻyicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi Oʻzbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/FM952 raqam bilan roʻyxatga olingan.

Dissertatsiya Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (oʻzbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.ik-mat.urdu.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Babajanov Bazar Atajanovich** fizika-matematika fanlari doktori, dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Yaxshumuratov Alisher Bekchanovich** fizika-matematika fanlari doktori
	Babadjanova Aygul Kamildjanovna fizika-matematika fanlari falsafa doktori (PhD)
Yetakchi tashkilot:	**Samarqand davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Urganch davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.FM.55.01 raqamli Ilmiy kengashning ____ yil «___»_________ soat ____ dagi majlisida boʻlib oʻtadi. (Manzil: 220100, Urganch sh., H.Olimjon koʻchasi, 14-uy. Tel.: (+99862) 224-66-11, faks: (+99862) 224-67-00, e-mail: ik-mat.urdu@umail.uz.)

Dissertatsiya bilan Urganch davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan roʻyxatga olingan). (Manzil: 220100, Urganch sh., H.Olimjon koʻchasi, 14-uy. Tel.: (+99868) 224-67-00).

Dissertatsiya avtoreferati ______ yil «___»_________ kuni tarqatildi.

(_____ yil __ (oy)dagi __ raqamli reestr bayonnomasi).

Gʻ.Oʻ. Oʻrazboyev
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash raisi, f.-m.f.d.

A.A. Reyimberganov
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, f.-m.f.n.

A.B. Yaxshimuratov
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi oʻrinbosari, f.-m.f.d.

Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida olib borilayotgan ko‘plab ilmiy-amaliy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, matematik fizika va kvant mexanikasining ko‘plab masalalari, ko‘p hollarda, differensial-chekli ayirmali tenglamalar bilan ifodalanadigan matematik modellar orqali ifodalanadi. Bu turdagi Toda zanjiri, differensial-chekli ayirmali Shredinger tenglamasi, Ablovitz-Ladik zanjiri kabi nochiziqli tenglamalar kvant mexanikasi, nochiziqli optika, plazma fizikasi kabi sohalarda keng qo‘llanilmoqda. Bunday tenglamalarni integrallashda chekli ayirmali operatorlar spektral nazariyasining to‘g‘ri va teskari masalalari usullaridan foydalanish, jarayon haqidagi tasavvurlarni kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli differensial-chekli ayirmali tenglamalarni integrallash, ularni integrallashga chekli ayirmali operatorlar spektral nazariyasining to‘g‘ri va teskari masalalari usullarini tadbiq qilish ushbu sohadagi muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Hozirgi kunda jahonda fizik modellarni o‘rganishda chekli ayirmali operatorlar spektral nazariyasi usullari muhim matematik instrument bo‘lib xizmat qilmoqda. Plazma fizikasi, nochiziqli optika, yadro fizikasi sohalarida yuzaga keladigan to‘lqin tarqalish jarayonlarini tadqiq qilishda muhitga qo‘shimcha ta’sirlarni hisobga olish, soliton to‘lqinlarning turli xil dinamikalarini o‘rganish zaruratini paydo qiladi. Bu jarayonlarning matematik modeli sifatida, moslangan manbali differensial-chekli ayirmali tenglamalar uchun boshlang‘ich-chegaraviy masalalar qaraladi. Bu tenglamalarning ayrim yechimlari soliton to‘lqinlarni ifodalaydi. Shu sababli, Toda tipidagi tenglama, moslangan manbali Toda tenglamasi uchun boshlang‘ich-chegaraviy masalasi hamda moslangan manbali umumlashgan Toda tenglamasi uchun Koshi masalasi yechimini topish maqsadli ilmiy tadqiqotlardan hisoblanadi.

Mamlakatimizda amaliy va fundamental ahamiyatga ega bo‘lgan matematik fizikaning tadbiqiy masalalarini hal qilish uchun zamonaviy matematik uslullarini ishlab chiqish va qo‘llashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, differensial, chekli-ayirmali operatorlar uchun sochilish nazariyasining to‘g‘ri va teskari spektral masalalari va xususiy hosilali differensial tenglamalarning amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan masalalarini o‘rganishga e’tibor kuchaydi. Buning natijasida matematik fizikaning amaliy va fundamental ahamiyatga ega bo‘lgan nochiziqli evolyutsion tenglamalari uchun qo‘yilgan boshlang‘ich-chegaraviy masalalarini to‘g‘ri va teskari spektral masalalar usuli yordamida integrallash bo‘yicha salmoqli natijalarga erishildi. Matematika, fizika va matematik fizikaning zamonaviy usullari sohasida xalqaro standartlar darajasida ilmiy tadqiqotlar olib borish ilmiy tadqiqot va oliy ta’lim muassasalari faoliyatining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi[1]. Qaror ijrosini ta’minlashda, differensial, chekli-ayirmali operatorlar uchun to‘g‘ri va teskari spektral masalalar nazariyasini rivojlantirish, moslangan manbali chekli-ayirmali differensial tenglamalarni o‘rganish va tatqiq qilish muhim ahamiyatga ega.

---

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 7 maydagi “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4708-son qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 iyuldagi PQ-4387-son «Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi va 2020 yil 7 maydagi PQ-4708-son «Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlari, 2020-yil 29-oktabrdagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi" tasdiqlash to‘g‘risidagi PF-6097-son Farmoni, 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son Farmoni, 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Ushbu dissertatsiyadagi izlanish va tadqiqotlar O‘zbekiston Respublikasida fan va texnika taraqqiyotining IV. «Matematika, mexanika va informatika» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq olib borildi.

Muammoni o‘rganilganlik darajasi. Shturm-Liuvill tipidagi operatorlarning spektral nazariyasi bo‘yicha dastlabki tadqiqotlar, tor tebranishini tavsiflovchi tenglamaning yechimi bilan bog‘liq holda Dalamber, Eyler, Liuvill, Shturm va D.Bernulli tomonidan amalga oshirilgan. Ma’lumki, spektral tahlilning to‘g‘ri masalasi spektrning xossalari va chiziqli operatorlarning xos funksiyalari, shuningdek, to‘liqlik va spektral yoyish masalalarini o‘rganishdan iborat. Teskari masalalar chiziqli operatorlarni ularning spektral xarakteristikalari asosida aniqlashdan iborat. XX-asrning ikkinchi yarmida oddiy differensial operatorlar uchun spektral tahlilning to‘g‘ri masalalarini o‘rganishga A.G. Kostyuchenko, M.A. Naymark, V.B. Lidskiy, Ya.T. Sultanaev, V.A. Sadovnichiy, M.K. Fage, A.A. Shkalikov va A.P. Xromov boshqa matematiklarning asarlari katta hissa qo‘shgan.

Oddiy differensial operatorlar uchun teskari spektral masalalar nazariyasidagi asosiy natijalar N.Levinson, L.A.Chudov, A.N.Tixonov, V.A.Marchenko, M.G.Kreyn, I.M.Gelfand, B.M.Levitan, Yu.M.Berezanskiy, M.G.Gasimov, I.Key, L.D.Faddeev, V.A.Sadovnichiy, V.E.Lyantse, F.S.Rofe-Beketov, Yu.Moser, V.A.Yurko, A.B. Xasanov va boshqalar tomonidan olingan.

Diskret Shturm-Liuvill operatori uchun sochilish nazariyasining teskari masalasi birinchi marta K.Keys va M.Kats ishlarida ko‘rib chiqilgan bo‘lsa, S.V.Manakov, N.Flashka, E.M.Nikishin, G.Sh.Guseynov, M.S.Eskin, V.G.Tarnopolskiy va boshqalar ishlarida rivojlantirilgan. Diskret Hill operatori uchun to‘g‘ri va teskari masala M.G.Kreyn, H.Hochstadt, E.Deyt, S.Tanaka, M.Toda, N.V.Jernakov, G.Teschl A.B.Xasanov, va boshqalarning ishlarida o‘rganilgan.

Diskret operatorlar uchun teskari masala usulining keyingi rivojlanishi uning differensial-chekli ayirmali tenglamalar sistemasiga qo‘llanilishi bilan bog‘liq.

Bunday sistemalarga bir o‘lchamli zarrachaning eng yaqin qo‘shni zarracha bilan o‘zaro eksponensial ta’sir dinamikasini tavsiflovchi tenglamalar sistemasi misol bo‘ladi. Birinchi marta bu sistema M.Toda tomonidan o‘rganilib, aniq yechimi topilgan, shuning uchun bu sistema Toda zanjiri deb ataladi. S.V.Manakov, N.Flashka va A.X.Xanmamedovlarning ishlarida Toda sistemasini yechish uchun chekli ayirmali Shturm-Liuvill operatori uchun sochilish nazaiyasining teskari masalasi usulini qo‘llash mumkinligi ko‘rsatilgan.

Umumiy Toda tenglamasi uchun teskari masala usulini qo‘llash mumkinligi V. Bull, F. Gestezi, X. Holden va G. Teschl ishlarida o‘rganilgan.

V.K.Melnikovning moslangan manbali nochiziqli evolyutsion tenglamalar bo‘yicha fundamental ishlarida sochilish nazariyasi teskari masalasi usulidan foydalangan holda moslangan manbali KdF tenglamasi "tez kamayuvchi" funksiyalar sinfida integrallangan. Xitoy matematiklari Xing-Biao Hu, Hong-Yan Wang, Da-jun Zhang, Xiaojun Liu, Yunbo Zeng, Deng-yuan Chen asarlarida Xirota va Darbu almashtirishi usullari turli moslangan manbali nochiziqli evolyutsion tenglamalarni yechish uchun qo‘llanilgan. Xususan, Xiaojun Liu, Yunbo Zeng ishida moslangan manbali Toda zanjirining yechimlari Darbu almashtirishi usuli yordamida tuzilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Urganch davlat universiteti “Amaliy matematika va matematik fizika” kafedrasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq OT-F4-04 (05)- “Spektral usulni matritsaviy nochiziqli evolyutsion tenglamalarni yechishga tatbiqlari, Yurak qon-tomir tizimining biomexanikasi” (2017-2020 y.) mavzusidagi fundamental ilmiy tadqiqot loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Chekli kompleks Toda tipidagi tenglamaga qo‘yilgan boshlang‘ich chegaraviy masalani teskari spektral masala usulida yechish, moslangan manbali haqiqiy chekli Toda tenglamasiga qo‘yilgan boshlang‘ich-chegaraviy masalani teskari spektral masala usulida yechish, moslangan manbali kompleks chekli Toda tenglamasiga qo‘yilgan boshlang‘ich-chegaraviy masalani teskari spektral masala usulida yechish, integral manbali umumiy Toda va Toda tipidagi tenglamalarni integrallashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari.

Chekli kompleks Toda tipidagi tenglamaga qo‘yilgan boshlang‘ich-chegaraviy masalani teskari spektral masala usulida yechish;

moslangan manbali haqiqiy chekli Toda tenglamasiga qo‘yilgan boshlang‘ich-chegaraviy masalani teskari spektral masala usulida yechish;

moslangan manbali kompleks chekli Toda tenglamasiga qo‘yilgan boshlang‘ich-chegaraviy masalani teskari spektral masala usulida yechish;

Integral manbali Toda tipidagi tenglamani integrallash;

Integral manbali umumiy Toda tenglamasini tuzish;

Integral manbali umumiy Toda tenglamasini integrallash.

Tadqiqot ob’ekti diskret Shturm-Liuvill tenglamasi, Toda tenglamasi, Toda tipidagi tenglama, moslangan manbali Toda tenglamasi, integral manbali Toda tipidagi tenglama, integral manbali umumiy Toda tenglamasi.

Tadqiqot predmeti diskret Shturm-Liuvill tenglamasi uchun sochilish nazariyasining teskari masalasi hamda uni moslangan manbali evolyutsion tenglamalarga tatbiqlari.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida xususiy hosilali tenglamalar, funksional tahlil va kompleks oʻzgaruvchili funksiyalar nazariyasi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Chekli ayirmali operatorlar spektral nazariyasining teskari masalasi usuli yordamida chekli kompleks Toda tipidagi tenglamaga qoʻyilgan boshlangʻich-chegaraviy masala yechilgan;

Koeffitsiyentlari moslangan manbali chekli haqiqiy Toda tenglamasiga qoʻyilgan boshlangʻich-chegaraviy masalaning yechimi boʻlgan chekli ayirmali operatorning spektral berilganlarining vaqtga bogʻliq oʻzgarishi topilgan hamda ular orqali moslangan manbali haqiqiy chekli Toda tenglamasi integrallangan;

moslangan manbali kompleks chekli Toda tenglamasiga qoʻyilgan boshlangʻich-chegaraviy masalanining yechimini topishga chekli ayirmali operatorlar spektral nazariyasining teskari masalasi usuli tadbiq qilingan;

Sochilish nazariyasining teskari masalasi usulidan foydalangan holda integral manbali umumiy Toda hamda Toda tipidagi tenglamalarining integrallanuvchanligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

chekli kompleks Toda tipidagi tenglamaga qoʻyilgan boshlangʻich-chegaraviy masalani chekli ayirmali operatorlar spektral nazariyasining teskari masalasi usulidan foydalangan holda yechish algoritmlari ishlab chiqilgan. Mazkur algoritm moslangan manbali chekli Toda tenglamasiga qoʻyilgan boshlangʻich-chegaraviy masalani yechishga qoʻllanilgan;

chekli ayirmali operatorlar uchun sochilish nazariyasining berilganlarining vaqt boʻyicha oʻzgarish dinamikasini ifodalovchi chiziqli differensial tenglamalar integral manbali umumiy Toda hamda Toda tipidagi tenglamalarini integrallashda qoʻllanilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qoʻyilgan vazifalarni oʻrganishda matematik fizika, funksional tahlil va kompleks oʻzgaruvchili funksiyalar nazariyasi, chekli ayirmali operatorlar uchun sochilish nazariyasining teskari masalasi usullaridan foydalanilgan va barcha isbotlar qat’iy matematik mulohazalarga tayanganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, ishda olingan ilmiy natijalar chiziqli operatorlarning spektral nazariyasida, qattiq jismlar fizikasida, maxsus turdagi elektr uzatish liniyalarining ayrim modellarida, gidrodinamikada va kvant fizikada qoʻllanilishi mumkin. Dissertatsiya tadqiqotining amaliy ahamiyati ishda olingan ilmiy natijalarni matematik fizika sohasida nochiziqli evolyutsion tenglamalarni integrallashda qoʻllash bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Moslangan manbali Toda tenglamasi va uning umumlashmalarini teskari spektral masala usulida yechish boʻyicha olingan natijalar asosida:

yuqori tartibli Toda tenglamasini diskret Shturm-Liuvill tenglamasi uchun qo‘yilgan teskari masala yordamida integrallash algoritmidan RFFI 20-01-00293 raqamli “Boshqaruv nazariyasi muammolarida sifat usullari va tayinlanmagan terminal momentli differensial o‘yinlar nazariyasi” mavzusidagi fundamental loyihada xususiy hosilali differensial tenglamalar bilan ifodalanuvchi tizimlarni boshqarish masalalarini hal qilishda foydalanilgan (Udmurt davlat universitetining 2023 yil 15-noyabrdagi №1001-10430/32-sonli ma’lumotnomasi). Ilmiy natijalarning qo‘llanilishi yangi yondashuv asosida maxsus turdagi o‘tao‘tkazgichlar subzonalari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirlarini o‘rganish imkonini bergan;

tez kamayuvchi funksiyalar sinfida moslangan manbali Toda turidagi tenglama uchun qo‘yilgan Koshi masalasini diskret Shturm-Liuvill operatori uchun teskari spektral masala usulida yechishdan OT-F4-04 (05) raqamli “Spektral usulni matritsaviy nochiziqli evolyutsion tenglamalarni yechishga tatbiqlari; Yurak qon-tomir tizimining biomexanikasi” mavzusidagi fundamental loyihasi doirasida tez kamayuvchi funksiyalar sinfida umumiy Toda tenglamasi uchun moslangan manba qurish algoritmini keltirib chiqarishda foydalanilgan (Urganch davlat universitetining 2023-yil 16-noyabrdagi №01-04/01-11/3077-sonli ma’lumotnomasi). Ilmiy natijalarning qo‘llanilishi integral manbali matritsaviy Korteveg-de Friz tenglamasi uchun qo‘yilgan Koshi masalasini yechish algoritmini ishlab chiqish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy mazmuni 12 ta ilmiy-amaliy konferensiyalarda, shu jumladan 8 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilindi.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusida 19 ta ilmiy ish chop qilingan, ulardan 7 tasi doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini nashr etish uchun O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda, shu jumladan 5 tasi xorijiy jurnallarda chop qilingan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissretatsiyaning hajmi 114 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Chekli kompleks Toda tipidagi tenglama uchun boshlang‘ich-chegaraviy masala”** mavzusiga bag‘ishlangan bo‘lib, uning birinchi paragrafida chekli kompleks Yakobi matritsasiga qo‘yilgan to‘g‘ri va teskari spektral masalalar haqida zururiy ma’lumotlar keltirilgan.

Ushbu

$$J=\begin{bmatrix} b_0 & a_0 & 0 & \dots & 0 & 0 & 0 \\ a_0 & b_1 & a_1 & \dots & 0 & 0 & 0 \\ 0 & a_1 & b_2 & \dots & 0 & 0 & 0 \\ \vdots & \vdots & \vdots & \ddots & \vdots & \vdots & \vdots \\ 0 & 0 & 0 & \dots & b_{N-3} & a_{N-3} & 0 \\ 0 & 0 & 0 & \dots & a_{N-3} & b_{N-2} & a_{N-2} \\ 0 & 0 & 0 & \dots & 0 & a_{N-2} & b_{N-1} \end{bmatrix}, \qquad (1)$$

matritsaga $N\times N$ o‘lchamli Yakobi matritsasi deyiladi. Bu yerda a_n va b_n lar ixtiyoriy kompleks sonlar bo‘lib, $a_n, b_n \in \mathbb{C}, a_n \neq 0.$

Ushbu $\omega(\lambda) = -((R(\lambda)e_0, e_0)$ funksiya J matritsaning rezolventa funksiyasi deyiladi. Bu yerda $R(\lambda)=(J-\lambda I)^{-1}$, $e_0=(1,0,...,0)^T$ va $(\cdot,\cdot)$ belgi $\mathbb{C}^N$ fazodagi skalyar ko‘paytmani bildiradi.

$\lambda_1,...,\lambda_p$ orqali J matritsaning barcha xos qiymatlarini, $m_1,...,m_p$ orqali ularning karraliligini belgilaymiz, bunda $1\le p\le N$ va $m_1+...+m_p=N.$ $\omega(\lambda)$ ratsional funksiya bo‘ladi, uni oddiy kasrlarga yoysak, quyidagiga ega bo‘lamiz

$$\omega(\lambda)=\sum_{k=1}^{p}\sum_{j=1}^{m_k}\frac{\beta_{kj}}{(\lambda-\lambda_k)^j}.$$

Bu yerda β_{kj} biror kompleks sonlar bo‘lib, J matritsa orqali bir qiymatli topiladi.

1-ta’rif. Ushbu $\{\lambda_k, \beta_{kj}(j=1,...,m_k, k=1,...,p)\}$ sonlar tizimiga J matritsaning spektral berilganlari deyiladi. Har bir $k\in\{1,...,p\}$ uchun ushbu $\{\beta_{k1},...,\beta_{km_k}\}$ chekli ketma-ketlik J matritsaning λ_k xos qiymatiga mos keluvchi normallovchi o‘zgarmaslari deyiladi.

J matritsa bo‘yicha spektral berilganlarni topish to‘g‘ri masala, spektral berilganlar yordamida J matritsaning a_n, b_n koeffitsiyentlarini aniqlash J matritsa uchun teskari masala deyiladi.

Spektral berilganlar yordamida J matritsaning a_n, b_n koeffitsiyentlarini topish algoritmini keltiramiz. Avvalo spektral berilganlar yordamida ushbu

$$s_l=\sum_{k=1}^{p}\sum_{j=1}^{m_k}\binom{l}{j-1}\beta_{kj}\lambda_k^{l-j+1},\ l=0,1,2,...,$$

sonlarni tuzib olamiz, bunda $\binom{l}{j-1}$ binom koeffitsiyenti bo‘lib, $j-1>l$ uchun $\binom{l}{j-1}=0$ deb olinadi. Shundan so‘ng, s_l sonlaridan foydalanib, quyidagi determinantlarni kiritamiz

$$D_n=\begin{vmatrix} s_0 & s_1 & \dots & s_n \\ s_1 & s_2 & \dots & s_{n+1} \\ \vdots & \vdots & \ddots & \vdots \\ s_n & s_{n+1} & \dots & s_{2n} \end{vmatrix}, \quad n=0,1,...,N, \tag{2}$$

$$\Delta_n=\begin{vmatrix} s_0 & s_1 & \dots & s_{n-1} & s_{n+1} \\ s_1 & s_2 & \dots & s_n & s_{n+2} \\ \vdots & \vdots & \ddots & \vdots & \vdots \\ s_n & s_{n+1} & \dots & s_{2n-1} & s_{2n+1} \end{vmatrix}, \quad n=0,1,...,N. \tag{3}$$

Bu yerda

$$D_n \neq 0,\ n\in\{0,1,...,N-1\} \text{ va } D_N=0. \tag{4}$$

J matritsaning a_n, b_n koeffitsiyentlari spektral berilganlar yordamida quyidagicha topiladi:

$$a_n^2=\frac{D_{n-1}D_{n+1}}{D_n},\ n\in\{0,1,...,N-2\},\ D_{-1}=1, \tag{5}$$

$$b_n=\frac{\Delta_n}{D_n}-\frac{\Delta_{n-1}}{D_{n-1}},\ n\in\{0,1,...,N-1\},\ \Delta_{-1}=0,\ \Delta_0=s_l. \tag{6}$$

Aytaylik $\{\lambda_k,\beta_{kj}(j=1,...,m_k,k=1,...,p)\}$ ixtiyoriy sonlar tizimi berilgan bo‘lsin. Bu yerda $\lambda_1,...,\lambda_p$, $(1\le p\le N)$ turlicha bo‘lib, $1\le m_k\le N$ va $m_1+...+m_p=N$. Bu sonlar tizimi biror J Yakobi matritsasining spektral berilganlari bo‘lishi uchun ushbu

$$\sum_{k=1}^{p}\beta_{k1}=1$$

va (4) shartning bajarilishi zarur va yetarli.

Birinchi bobning ikkinchi paragrafida quyidagi chekli kompleks Toda tipidagi nochiziqli tenglamalar sistemasini

$$\begin{cases} \dot a_n=a_n(a_{n+1}^2-a_{n-1}^2)+a_n(b_{n+1}^2-b_n^2), \\ \dot b_n=2a_n^2(b_{n+1}+b_n)-2a_{n-1}^2(b_n+b_{n-1}),\ n=0,1,...,N-1 \end{cases} \tag{7}$$

ushbu

$$a_n(0)=a_n^0,\ b_n(0)=b_n^0,\ n=0,1,...,N-1 \tag{8}$$

boshlang‘ich va ushbu

$$a_{-1} = a_{N-1} = 0 \tag{9}$$
chegaraviy shartlar bilan birgalikda qaraymiz. Bu yerda a_n^0, b_n^0 oldindan berilgan kompleks sonlar bo‘lib, ular uchun $a_n^0 \neq 0$, $(n = 0,1,...,N-2)$, $a_{N-1}^0 = 0$ munosabatlar o‘rinli.

Bu paragrafning asosiy natijasi quyidagi teoremadan iborat.

1-teorema. *Agar* $\{a_n(t), b_n(t)\}$, $(n = 0,1,...,N-1)$ *funksiyalar (7)-(9) masalaning yechimi bo‘lsa, u holda* $J(t)$ *matritsaning spektral berilganlari* t $(t \in (0,t_1))$ *bo‘yicha quyidagicha o‘zgaradi:*

$$\lambda_k(t) = \lambda_k(0),$$
$$\beta_{kj}(t) = \frac{1}{S(t)} \sum_{s=j}^{m_k} \beta_{ks}(0) \left. \left(\frac{(e^{2z^2 t})_z^{(s-j)}}{(s-j)!} \right) \right|_{z=\lambda_k}, \ (j = 1,2,...,m_k;\ k = 1,...,p).$$

Bu yerda
$$S(t) = \sum_{k=1}^{p} \sum_{j=1}^{m_k} \beta_{kj}(0) \left. \left(\frac{(e^{2z^2 t})_z^{(j-1)}}{(j-1)!} \right) \right|_{z=\lambda_k}$$
bo‘lib, t_1 *soni* $S(t)$ *funksiyaning eng kichik musbat ildizini bildiradi (agar musbat ildiz bo‘lmasa* t_1 *ixtiyoriy musbat son).*

Olingan natijalar $J(t)$ matritsa spektral berilganlarining vaqt bo‘yicha evolyutsiyasini to‘la aniqlaydi va (7)-(9) masalani teskari spektral masala yordamida yechish imkonini beradi.

1-misol. Teorema 1 ning qo‘llanilishini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. $N = 2$ bo‘lganda (7) tenglamalar sistemasini ushbu
$$a_0(0) = ic,\ b_0(0) = \lambda_0 + c,\ b_1(0) = \lambda_0 - c,$$
$$a_{-1}(t) = a_1(t) = 0,\ t > 0$$
boshlang‘ich va chegaraviy shartlar bilan qaraymiz. Bu yerda λ_0 va c ixtiyoriy kompleks sonlar va $c \neq 0$.

$J(0)$ matritsaning spektral berilganlarini topamiz:
$$\lambda(0) = \lambda_0,\ \beta_{11}(0) = 1,\ \beta_{12}(0) = c.$$
1-teorema natijalaridan foydalanib, quyidagiga ega bo‘lamiz
$$\lambda(t) = \lambda_0,\ \beta_{11}(t) = 1,\ \beta_{12}(t) = \frac{c}{1 + 4\lambda_0 ct}.$$

Topilgan spektral berilganlar yordamida, (2) va (3) tengliklardan foydalanib quyidagilarni aniqlaymiz

$$D_{-1}(t) = 1,\ D_0(t) = 1,\ D_1(t) = -\frac{c^2}{(1 + 4\lambda_0 ct)^2},\ D_2(t) = 0,$$

$$\Delta_{-1}(t)=0\,,\ \ \Delta_0(t)=\lambda_0+\frac{c}{1+4\lambda_0 ct}\,,\ \Delta_1(t)=-\frac{2c^2\lambda_0}{(1+4\lambda_0 ct)^2}\,.$$

Natijada (5) va (6) tengliklardan, qaralayotgan masalaning yechimi $a_n(t), b_n(t)$, $(n=0,1)$ funksiyalar topiladi. Ular quyidagicha bo‘ladi:

$$a_0(t)=\frac{ic}{1+4\lambda_0 ct}\,,\ b_0(t)=\lambda_0+\frac{c}{1+4\lambda_0 ct}\,,\ b_1(t)=\lambda_0-\frac{c}{1+4\lambda_0 ct}\,.$$

Agar $\lambda_0 c\notin\mathbb{R}$ yoki $\lambda_0 c\geq 0$ bo‘lsa, $t\in[0,\infty)$ bo‘ladi. Agar $\lambda_0 c<0$ bo‘lsa, $t\in[0,-1/4\lambda_0 c)$ bo‘ladi.

Ikkinchi bob “**Moslangan manbali chekli Toda tenglamasi uchun boshlang‘ich-chegaraviy masala**” deb nomlangan bo‘lib, uning birinchi paragfarida moslangan manbali haqiqiy chekli Toda tenglamasiga qo‘yilgan boshlang‘ich-chegaraviy masalani Yakobi matritsasi uchun teskari masala usuli yordamida yechish algoritmi keltirilgan.

Quyidagi moslangan manbali chekli Toda tenglamalar sistemasini

$$\begin{cases}\dot{a}_n=a_n(b_{n+1}-b_n)+a_n\sum\limits_{k=1}^{N}\left((g_n^k)^2-(g_{n+1}^k)^2\right),\\ \dot{b}_n=2(a_n^2-a_{n-1}^2)-2\sum\limits_{k=1}^{N}g_n^k(a_n g_{n+1}^k-a_{n-1}g_{n-1}^k),\\ a_{n-1}g_{n-1}^k+b_n g_n^k+a_n g_{n+1}^k=\lambda_k g_n^k,\ k=1,...,N,\ n=0,1,...,N-1\end{cases}\tag{10}$$

ushbu

$$a_n(0)=a_n^0, b_n(0)=b_n^0,\ n=0,1,...,N-1,\tag{11}$$

$$a_{-1}=a_{N-1}=0\tag{12}$$

boshlang‘ich va chegaraviy shartlar bilan qaraymiz. Bu yerda a_n^0, b_n^0 oldindan berilgan haqiqiy sonlar bo‘lib, $a_n^0\neq 0$ $(n=0,1,...,N-2)$, $a_{N-1}^0=0$.

Bu holda $J(t)$ matritsa karrali xos qiymatga ega bo‘lmaydi.

(10) sistemada $\{a_n=a_n(t)\}_{n=0}^{N-1}$, $\{b_n=b_n(t)\}_{n=0}^{N-1}$ va $\{g_n^1(t), g_n^2(t),...,g_n^N(t)\}_{n=0}^{N-1}$ noma’lum funksiyalar bo‘lib, $g^k(t)=(g_0^k(t),g_1^k(t),...,g_{N-1}^k(t))^T$, $k=1,...,N$ vektor-funksiyalar (1) ko‘rinishdagi Yakobi matritsasining λ_k, $k=1,...,N$ xos qiymatlariga mos keluvchi va ushbu $\sum\limits_{n=0}^{N-1}(g_n^k)^2=1$ shart bilan normallangan xos funksiyalari.

(10)-(12) masalaning to‘la integrallanuvchi ekanligini ko‘rsatish uchun, bu masalaga ekvivalent bo‘lgan ushbu

$$\frac{d}{dt}J=[J,A]=JA-AJ\tag{13}$$

Laks tenglamasini tuzish yetarli.

1-lemma. *Agar* $A = A(t)$ *matritsa*

$$A = \begin{bmatrix} 0 & -a_0 + d_{0,1} & \cdots & d_{0,N-2} & d_{0,N-1} \\ a_0 - d_{0,1} & 0 & \cdots & d_{1,N-2} & d_{1,N-1} \\ \vdots & \vdots & \ddots & \vdots & \vdots \\ -d_{0,N-2} & -d_{1,N-2} & \cdots & 0 & -a_{N-2} + d_{N-2,N-1} \\ -d_{0,N-1} & -d_{1,N-1} & \cdots & a_{N-2} - d_{N-2,N-1} & 0 \end{bmatrix},$$

ko'rinishda bo'lsa, u holda (10), (12) masala (13) Laks tenglamasiga ekvivalent bo'ladi, bu yerda $d_{i,j} = \sum_{k=1}^{N} g_i^k g_j^k$, $i = 0,1,...,N-2$, $j = 1,2,...,N-1$.

2-lemma. *Agar* $\{a_n(t), b_n(t)\}$ *funksiyalar (10)-(12) masalaning yechimi bo'lib,* $J = J(t)$ *bu yechimlar orqali (1) ko'rinishda aniqlangan Yakobi matritsasi bo'lsa, u holda* $J(t)$ *matritsaning* λ_k $(k = 1,2,...,N)$ *xos qiymatlari* t *ga bog'liq emas, ya'ni*

$$\lambda_k(t) = \lambda_k(0).$$

3-lemma. *Agar* $\{a_n(t), b_n(t)\}$ *funksiyalar (10)-(12) masalaning yechimi bo'lib,* $J = J(t)$ *bu yechimlar orqali (1) ko'rinishda aniqlangan Yakobi matritsasi bo'lsa, u holda* $J(t)$ *matritsaning* $\omega(\lambda;t)$ *rezolventa funksiyasi* t *vaqt bo'yicha ushbu*

$$\dot{\omega} = 2\left[(\lambda - b_0) - \sum_{k=1}^{N} g_0^k \sum_{i=1}^{N-1} g_i^k P_i\right]\omega - 2\left[1 - \sum_{k=1}^{N} g_0^k \sum_{i=1}^{N-1} g_i^k Q_i\right],$$

qonuniyat bo'yicha o'zgaradi. $\{P_n(\lambda,t)\}_{n=-1}^{N}$ *va* $\{Q_n(\lambda,t)\}_{n=-1}^{N}$ *funksiyalar*

$$\left(Ly\right)_n \equiv \hat{a}_{n-1} y_{n-1} + b_n y_n + \hat{a}_n y_{n+1} = \lambda y_n, \quad n \in \{0,1,...,N-1\}$$

tenglamaning

$$P_{-1}(\lambda,t) = 0,\ P_0(\lambda,t) = 1,\ Q_{-1}(\lambda,t) = -1,\ Q_0(\lambda,t) = 0$$

boshlang'ich shartlarni qanoatlantiruvchi yechimi bo'lib, $\hat{a}_{-1} = \hat{a}_{N-1} = 1$, $\hat{a}_n = a_n$, $n \in \{0,1,...,N-2\}$.

4-lemma. *Agar* $\{a_n(t), b_n(t)\}$ *funksiyalar (10)-(12) masalaning yechimi bo'lib,* $J = J(t)$ *bu yechimlar orqali (1) ko'rinishda aniqlangan Yakobi matritsasi bo'lsa, u holda* $J(t)$ *matritsaning* $\beta_k(t)$ $(k = 1,...,N)$ *normallovchi o'zgarmaslari vaqt bo'yicha quyidagicha o'zgaradi,* $t \in (0,\infty)$*:*

$$\beta_k(t) = \frac{1}{S(t)} \beta_k(0) e^{2\lambda_k t},$$

bunda $S(t) = \sum_{k=1}^{N} \beta_k(0) e^{2\lambda_k t}$.

Bu paragrafning asosiy natijasi quyidagi teoremadan iborat.

2-teorema. *Agar* $\{a_n(t), b_n(t), g_n^1(t), g_n^2(t), ..., g_n^N(t)\}$, $(n = 0,1,..., N-1)$ *funksiyalar (10)-(12) masalaning yechimi bo'lsa, u holda* $J(t)$ *matritsaning spektral berilganlari quyidagi tenglamalarni qanoatlantiradi (*$t \in (0,\infty)$*)*

$$\lambda_k(t) = \lambda_k(0),$$

$$\beta_k(t) = \frac{1}{S(t)}\beta_k(0)e^{2\lambda_k t}, \ (k = 1,..., N).$$

Bu yerda $S(t) = \sum_{k=1}^{N}\beta_k(0)e^{2\lambda_k t}$.

Olingan natijalar $J(t)$ matritsa spektral berilganlarining vaqt bo'yicha evolyutsiyasini to'la aniqlaydi va (10)-(12) masalani teskari spektral masala yordamida yechish imkonini beradi.

2-misol. $N = 2$ bo'lganda (10) tenglamalar sistemasini ushbu

$$a_0(0) = \sqrt{3}, \ b_0(0) = 1, \ b_1(0) = -1$$

$$a_{-1}(t) = a_1(t) = 0, \ t > 0$$

boshlang'ich va chegaraviy shartlar bilan qaraymiz.

$J(0)$ matritsaning spektral berilganlarini topamiz:

$$\{\lambda_1 = 2, \lambda_2 = -2, \beta_1(0) = \frac{3}{4}, \beta_2(0) = \frac{1}{4}\}.$$

2-teorema natijalaridan foydalanib, quyidagiga ega bo'lamiz

$$\lambda_1(t) = 2, \ \lambda_2(t) = -2 \ \ \beta_1(t) = \frac{3e^{4t}}{3e^{4t} + e^{-4t}}, \ \beta_2(t) = \frac{e^{-4t}}{3e^{4t} + e^{-4t}}.$$

Topilgan spektral berilganlar yordamida, (2) va (3) tengliklardan foydalanib quyidagilarni aniqlaymiz

$$D_{-1}(t) = 1, \ D_0(t) = 1, \ D_1(t) = \frac{48}{(3e^{4t} + e^{-4t})^2}, \ D_2(t) = 0,$$

$$\Delta_{-1}(t) = 0, \ \Delta_0(t) = \frac{2(3e^{4t} - e^{-4t})}{3e^{4t} + e^{-4t}}, \ \Delta_1(t) = 0.$$

Natijada, (5) va (6) tengliklardan qaralayotgan masalaning yechimi $a_n(t), b_n(t)$, $(n = 0,1)$ topiladi. Ular quyidagicha bo'ladi:

$$a_0(t) = \frac{4\sqrt{3}}{3e^{4t} + e^{-4t}}, \ b_0(t) = \frac{2(3e^{4t} - e^{-4t})}{3e^{4t} + e^{-4t}}, \ b_1(t) = -\frac{2(3e^{4t} - e^{-4t})}{3e^{4t} + e^{-4t}}.$$

$g_n^k(t)$ manba quyidagicha hisoblanadi:

$$g_0^1(t) = \pm\sqrt{\beta_1(t)}P_0(\lambda_1, t) = \pm\sqrt{\beta_1(t)} = \pm\sqrt{\frac{3e^{4t}}{3e^{4t} + e^{-4t}}},$$

$$g_0^2(t) = \pm\sqrt{\beta_2(t)}P_0(\lambda_2, t) = \pm\sqrt{\beta_2(t)} = \pm\sqrt{\frac{e^{-4t}}{3e^{4t} + e^{-4t}}},$$

$$g_1^1(t)=\pm\sqrt{\beta_1(t)}P_1(\lambda_1,t)=\pm\sqrt{\beta_1(t)}\,\frac{\lambda_1-b_0(t)}{a_0(t)}=\pm\frac{e^{-2t}}{\sqrt{3e^{4t}+e^{-4t}}},$$
$$g_1^2(t)=\pm\sqrt{\beta_2(t)}P_1(\lambda_2,t)=\pm\sqrt{\beta_2(t)}\,\frac{\lambda_2-b_0(t)}{a_0(t)}=\mp\frac{\sqrt{3}e^{2t}}{\sqrt{3e^{4t}+e^{-4t}}}.$$

Ikkinchi bobning ikkinchi paragrafida quyidagi moslangan manbali kompleks qiymatli chekli Toda tenglamasi

$$\begin{cases} \dot{a}_n=a_n(b_{n+1}-b_n)+a_n\sum\limits_{k=1}^{N}\left((g_n^k)^2-(g_{n+1}^k)^2\right), \\ \dot{b}_n=2(a_n^2-a_{n-1}^2)-2\sum\limits_{k=1}^{N}g_n^k(a_ng_{n+1}^k-a_{n-1}g_{n-1}^k), \\ a_{n-1}g_{n-1}^k+b_ng_n^k+a_ng_{n+1}^k=\lambda_kg_n^k,\ k=1,...,N,\ n=0,1,...,N-1, \end{cases} \tag{14}$$

ushbu

$$a_n(0)=a_n^0,\, b_n(0)=b_n^0,\ \ n=0,1,...,N-1, \tag{15}$$
$$a_{-1}=a_{N-1}=0, \tag{16}$$

boshlang‘ich va chegaraviy shartlar bilan integrallangan. Bu yerda a_n^0, b_n^0 oldindan berilgan kompleks sonlar bo‘lib, ular quyidagi shartlarni qanoatlantiradi

1) $a_n^0\neq 0$ ($n=0,1,...,N-2$), $a_{N-1}^0=0$;

2) $J(0)$ matritsa N ta turlicha (kompleks) xos qiymatlarga ega.

Bu paragrafning asosiy natijasi quyidagi teoremadan iborat.

3-teorema. *Agar* $\{a_n(t), b_n(t), g_n^1(t), g_n^2(t),..., g_n^N(t)\}$, $(n=0,1,...,N-1)$ *funksiyalar (14)-(16) masalaning yechimi bo‘lsa, u holda* $J(t)$ *matritsaning spektral berilganlari quyidagi tenglamalarni qanoatlantiradi* $(t\in(0,t_1))$

$$\lambda_k(t)=\lambda_k(0),$$
$$\beta_k(t)=\frac{1}{S(t)}\beta_k(0)e^{2\lambda_kt},\ (k=1,...,N).$$

Bu yerda $S(t)=\sum\limits_{k=1}^{N}\beta_k(0)e^{2\lambda_kt}$ *bo‘lib,* t_1 *soni* $S(t)$ *funksiyaning eng kichik musbat ildizini bildiradi (agar musbat ildiz bo‘lmasa* t_1 *ixtiyoriy musbat son).*

Olingan natijalar $J(t)$ matritsa spektral berilganlarining vaqt bo‘yicha evolyutsiyasini to‘la aniqlaydi va (14)-(16) masalani teskari spektral masala yordamida yechish imkonini beradi.

Uchinchi bob **“Integral manbali umumiy Toda tenglamasini integrallash”**ga bag‘ishlangan.

Uchinchi bobning birinchi paragrafida diskret Shturm-Liuvill tenglamasi uchun to‘g‘ri va teskari spektral masalalar haqida zururiy ma’lumotlar keltirilgan.

Quyidagi

$$\left(Ly\right)_n\equiv a_{n-1}y_{n-1}+b_ny_n+a_ny_{n+1}=\lambda y_n,\ n\in\mathbb{Z}, \tag{17}$$

ikkinchi tartibli chekli ayirmali tenglamani qaraymiz. Bu yerda $\{y_n\}_{-\infty}^{\infty}$ - noma'lum funksiya, $\lambda = \dfrac{z+z^{-1}}{2}$ - spektral parametr va a_n, b_n koeffitsiyentlar ushbu

$$a_n > 0,\ b_n \in \mathbb{R},\ n \in \mathbb{Z},\ \sum_{n=-\infty}^{\infty} |n| \left(\left| a_n - \frac{1}{2} \right| + \left| b_n \right| \right) < \infty \tag{18}$$

shartlarni qanoatlantiradi.

(18) shartlar bajarilganda (17) tenglamaning quyidagi

$$\varphi_n(z) = z^n + o(1),\ n \to \infty,\ |z| = 1,$$
$$\psi_n(z) = z^{-n} + o(1),\ n \to -\infty,\ |z| = 1,$$

asimptotikaga ega bo‘lgan yechimlarga ega bo‘ladi. Bu yechimlar Yost yechimlari deyiladi.

$|z|=1$ da $\{\varphi_n(z), \varphi_n(z^{-1})\}$ va $\{\psi_n(z), \psi_n(z^{-1})\}$ funksiyalar jufti (17) tenglamaning fundamental yechimlar juftini tashkil qiladi. Bundan

$$\psi_n(z) = \alpha(z)\varphi_n(z^{-1}) + \beta(z)\varphi_n(z)$$

tenglik o‘rinli bo‘lishi kelib chiqadi.

Ushbu $R(z) = -\dfrac{\beta(z^{-1})}{\alpha(z)}$, $|z|=1$ funksiya sochilish funksiyasi deb ataladi.

$\alpha(z)$ funksiya $|z|<1$ doira ichiga analitik davom qiladi va u yerda cheklita oddiy (karrasiz) $z_1, z_2, ..., z_N$ ildizga ega bo‘ladi va $\lambda_k = \dfrac{z_k + z_k^{-1}}{2}$, $k = 1, 2, ..., N$ sonlar L operatorning xos qiymatlari bo‘ladi. Bu xos qiymatlarga mos keluvchi $\left\{\xi_n^k\right\}_{n=-\infty}^{\infty}$ xos vektorlar, ushbu $\sum\limits_{n=-\infty}^{\infty} (\xi_n^k)^2 = 1$ shart bilan normallangam. Bu holda $\xi_n^k = B_k \varphi_n^k$, $k = 1, 2, ..., N$ bo‘ladi.

2-ta'rif. Ushbu $\{R(z), z_1, z_2, ..., z_N, B_1, B_2, ..., B_N\}$ jamlanmaga (17) tenglamaning sochilish nazariyasining berilganlari deyiladi.

Sochilish nazariyasining berilganlarini topish sochilish nazariyasining to‘g‘ri, sochlish nazariyasining berilganlari yordamida (17) tenglamaning a_n, b_n koeffitsiyentlarini aniqlash sochilish nazariyasining teskari masalasi deyiladi.

$\varphi_n(z)$ funksiya uchun

$$\varphi_n(z) = \sum_{m=n}^{\infty} K(n,m) z^m, \tag{19}$$

tasvir o‘rinli. (19) tasvirdagi $K(n,m)$ yadro ushbu

$$\chi(n,m) + F(n+m) + \sum_{n'=n+1}^{\infty} \chi(n,n') F(n'+m) = 0, \quad m > n,$$

$$(K(n,n))^{-2} = 1 + F(2n) + \sum_{n'=n+1}^{\infty} \chi(n,n') F(n'+n)$$

Gelfand-Levitan-Marchenko tenglamasining analogini qanoatlantiradi va a_n, b_n koeffitsiyentlar bilan

$$a_n = \frac{1}{2}\frac{K(n+1,n+1)}{K(n,n)}, \quad b_n = \frac{1}{2}\left(\frac{K(n,n+1)}{K(n,n)} - \frac{K(n-1,n)}{K(n-1,n-1)}\right)$$

tengliklar yordamida bog‘langan. Bu yerda

$$F(n) = \frac{1}{2\pi i}\oint_{|z|=1} R(z) z^{n-1} dz + \sum_{k=1}^{N} B_k^2 z_k^n, \quad \chi(n,m) = \frac{K(n,m)}{K(n,n)}.$$

Uchinchi bobning ikkinchi paragrafida moslangan integral manbali Toda tipidagi tenglama uchun Koshi masalasi integrallanuvchi ekanligi ko‘rsatilgan.

Uchinchi bobning uchinchi paragrafida integral manbali umumiy Toda tenglamasini

$$\begin{cases} \dot{a}_n = a_n(G_{n+1,r+1} - G_{n,r+1}) + a_n \oint\limits_{|\mu|=1} \frac{1}{\mu}(f_{n+1}(\mu,t)g_{n+1}(\mu,t) - f_n(\mu,t)g_n(\mu,t))d\mu, \\ \dot{b}_n = H_{n+1,r+1} - H_{n,r+1} + a_n \oint\limits_{|\mu|=1} \frac{1}{\mu}(f_n(\mu,t)g_{n+1}(\mu,t) + f_{n+1}(\mu,t)g_n(\mu,t))d\mu - \\ -a_{n-1} \oint\limits_{|\mu|=1} \frac{1}{\mu}(f_n(\mu,t)g_{n-1}(\mu,t) + f_{n-1}(\mu,t)g_n(\mu,t))d\mu, \\ a_{n-1}f_{n-1} + b_n f_n + a_n f_{n+1} = \frac{\mu+\mu^{-1}}{2} f_n, \\ a_{n-1}g_{n-1} + b_n g_n + a_n g_{n+1} = \frac{\mu+\mu^{-1}}{2} g_n, \quad n \in Z, \end{cases} \tag{20}$$

ushbu

$$a_n(0) = a_n^0, \ b_n(0) = b_n^0, \quad n \in \mathbb{Z}, \tag{21}$$

boshlang‘ich shartlar bilan qaraymiz. Bu yerda

$$G_{n,j}(t) = \sum_{s=0}^{j} c_{j-s} < \delta_n, L(t)^s \delta_n >, \quad 0 \le j \le r+1, \ r \in \mathbb{Z}_+,$$

$$H_{n,j}(t) = \sum_{s=0}^{j} 2a_n(t) c_{j-s} < \delta_{n+1}, L(t)^s \delta_n > + c_j + 1, \ \ 0 \le j \le r+1,$$

$$\left(L(t)y\right)_n \equiv a_{n-1}y_{n-1} + b_n y_n + a_n y_{n+1},$$

$$< \delta_m, \delta_n > = \begin{cases} 0, \ m \ne n \\ 1, \ m = n, \end{cases}$$

bo‘lib, $c_1, c_2, \ldots, c_{r+1}$ ixtiyoriy haqiqiy sonlar. $\{a_n^0\}_{-\infty}^{\infty}, \{b_n^0\}_{-\infty}^{\infty}$ quyidagi shartlarni qanoatlantiradi:

1. $a_n^0 > 0, \ b_n^0 \in \mathbb{R}, \quad n \in \mathbb{Z},$

$$2. \sum_{n=-\infty}^{\infty} |n| \left(\left| a_n^0 - \frac{1}{2} \right| + \left| b_n^0 \right| \right) < \infty, \tag{22}$$

3. $\left(L(0)y\right)_n \equiv a_{n-1}(0)y_{n-1} + b_n(0)y_n + a_n(0)y_{n+1}$ operator $[-1;1]$ kesmadan tashqarida N ta $\lambda_k(0) = \dfrac{z_k(0) + z_k^{-1}(0)}{2}$, $k = 1,2,\ldots,N$ xos qiymatga ega.

(20) sistemada $\{a_n(t)\}_{-\infty}^{\infty}, \{b_n(t)\}_{-\infty}^{\infty}$ funksiyalar va $\{f_n(\mu,t)\}_{-\infty}^{\infty}$, $\{g_n(\mu,t)\}_{-\infty}^{\infty}$ vektor-funksiyalar noma‘lum bo‘lib, ular uchun barcha $t \geq 0$ va $|\mu| = 1$ da quyidagi asimptotikalar o‘rinli:

$$g_n(\mu,t) \sim p(\mu,t)\mu^n + q(\mu,t)\mu^{-n},\ n \to -\infty,$$

$$f_n(\mu,t) \sim r(\mu,t)\mu^n + s(\mu,t)\mu^{-n},\ n \to -\infty.$$

Bu yerda $p(\mu,t), q(\mu,t), r(\mu,t)$ va $s(\mu,t)$ berilgan uzluksiz funksiyalar bo‘lib, $|\mu| = 1$ da barcha nomanfiy t lar uchun, $\nu \in (0,1]$ daraja bilan Gyolder shartini qanoatlantiradi.

(20) tenglamalar sistemasida r o‘zgaruvchining qiymatini o‘zgartirish orqali turli tartibli integral manbali Toda tenglamasini hosil qilish mumkin. Masalan,

$r = 0$ bo‘lganda, $\begin{cases} \dot{a}_n = a_n(b_n - b_{n+1}) + A_n, \\ \dot{b}_n = 2(a_{n-1}^2 - a_n^2) + B_n,\ \ n \in \mathbb{Z}. \end{cases}$

$r = 1$ bo‘lganda, $\begin{cases} \dot{a}_n = a_n(a_{n+1}^2 - a_n^2 + b_{n+1}^2 - b_n^2) + c_1 a_n(b_n - b_{n+1}) + A_n, \\ \dot{b}_n = 2a_n^2(b_n + b_{n+1}) - 2a_{n-1}^2(b_n + b_{n-1}) + 2c_1(a_{n-1}^2 - a_n^2) + B_n,\ \ n \in \mathbb{Z}. \end{cases}$

Uchinchi paragrafning asosiy natijasi quyidagi teoremadan iborat.

4-teorema. Agar $a_n(t)$, $b_n(t)$, $f_n(\mu,t)$, $g_n(\mu,t)$, $n \in \mathbb{Z}$ funksiyalar (20)-(22) masalaning yechimi bo‘lsa, u holda $\left(L(t)y\right)_n \equiv a_{n-1}(t)y_{n-1} + b_n(t)y_n + a_n(t)y_{n+1}$, tengliklar bilan aniqlanadigan $L(t)$ operator uchun sochilish nazariyasining berilganlari

$$\frac{dz_k}{dt} = 0,\ \ k = 1,2,\ldots,N\ , \tag{23}$$

$$\frac{\partial R(z,t)}{\partial t} = [\tilde{g}_r(z,0)(z - z^{-1}) + \frac{1}{z^2 - 1} v.p. \oint_{|\mu|=1} D(\mu,t)d\mu]R(z,t) +$$
$$+2\pi i(Q(z,t) + Q(z^{-1},t))R(z,t) + 4\pi i P(z^{-1}),\ \ z \neq \pm 1, \tag{24}$$

$$\frac{dB_k(t)}{dt} = \{(z_k - z_k^{-1})\tilde{g}_r(z_k,0) -$$
$$-\frac{1}{z_k^2 - 1}\oint_{|\mu|=1} \frac{(\mu + z_k)(\mu z_k - 1)}{\mu(\mu - z_k)}(b(\mu,t)c(\mu,t) + q(\mu,t)r(\mu,t))d\mu -$$
$$-\frac{1}{z_k^2 - 1}\oint_{|\mu|=1} \frac{(\mu - z_k)(\mu z_k + 1)}{\mu(\mu - z_k^{-1})}[a(\mu,t)d(\mu,t) + p(\mu,t)s(\mu,t)]d\mu\}B_k(t), \tag{25}$$

$k = 1,2,\ldots,N$, munosabatlar orqali aniqlanadi. Bu yerda $g_r(z,0)$ funksiya z o‘zgaruvchiga nisbatan ko‘phad,

$$D(\mu,t) = \left(q(\mu,t)r(\mu,t) + p(\mu,t)s(\mu,t)\right)\left[\frac{(\mu + z)(\mu z - 1)}{\mu(\mu - z)} + \frac{(\mu - z)(\mu z + 1)}{\mu(\mu - z^{-1})}\right],$$

$$P(\mu,t) = p(\mu,t)r(\mu,t) + q(\mu^{-1},t)s(\mu^{-1},t),$$
$$Q(\mu,t) = p(\mu,t)s(\mu,t) + q(\mu^{-1},t)r(\mu^{-1},t),$$
$$P(\mu^{-1},t) = -\overline{P(\mu,t)},\ \ Q(\mu^{-1},t) = -\overline{Q(\mu,t)},\ \ |\mu| = 1,\ t \ge 0\ ,$$
$$a(\mu,t) = p(\mu,t)\beta(\mu^{-1},t) + q(\mu,t)\alpha(\mu,t),$$
$$b(\mu,t) = p(\mu,t)\alpha(\mu^{-1},t) + q(\mu,t)\beta(\mu,t),$$
$$c(\mu,t) = r(\mu,t)\beta(\mu^{-1},t) + s(\mu,t)\alpha(\mu,t),$$
$$d(\mu,t) = r(\mu,t)\alpha(\mu^{-1},t) + s(\mu,t)\beta(\mu,t).$$

(23), (24) va (25) munosabatlar $L(t)$ operator uchun sochilish nazariyasining berilganlari evolyutsiyasini to‘la aniqlaydi. Bu esa (20)-(22) masalani sochilish nazariyasining teskari masalasi usulida yechish imkonini beradi.

Muallif o‘zining ilmiy rahbari, f.-m.f.d. Babajanov Bazar Atajanovichga doimiy e’tibori hamda dissertatsiya natijalarini muhokamasidagi qimmatli maslahatlari uchun samimiy minnatdorchilik bildiradi.

XULOSA

Dissertatsiya ishining birinchi bobi kompleks qiymatli chekli Toda tipidagi tenglama uchun boshlang‘ich-chegaraviy masalani chekli Yakobi matritsasi uchun qo‘yilgan teskari spektral masala usuli yordamida integrallashga bag‘ishlangan.

Ikkinchi bobida esa moslangan manbali haqiqiy va kompleks qiymatli chekli Toda tenglamasi uchun qo‘yilgan boshlang‘ich-chegaraviy masala chekli Yakobi matritsasi uchun teskari masala usulidan foydalanib yechilgan.

Dissertatsiya ishining uchinchi bobida moslangan integral manbali Toda tenglamasi hamda integral manbali umumiy Toda tenglamasi “tez kamayuvchi” funksiyalar sinfida to‘la integrallanuvchanligini isbotlangan.

Tadqiqotning asosiy natijalari quyidagilardan iborat:

chekli kompleks Toda tipidagi tenglamaga qo‘yilgan boshlang‘ich-chegaraviy masalaning to‘liq integrallanuvchanligi isbotlangan;

moslangan manbali haqiqiy chekli Toda tenglamasiga qo‘yilgan boshlang‘ich-chegaraviy masala yechilgan;

moslangan manbali kompleks chekli Toda tenglamasiga qo‘yilgan boshlang‘ich-chegaraviy masala yechilgan;

integral manbali Toda tipidagi tenglamani integrallanuvchanligi isbotlangan;

integral manbali umumiy Toda tenglamasi to‘liq integrallanuvchanligi isbotlangan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.12.2019.FM.55.01
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ ПРИ УРГЕНЧСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

УРГЕНЧСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

РУЗМЕТОВ МУРОД МАРКСОВИЧ

ИНТЕГРИРОВАНИЕ УРАВНЕНИЯ ТОДЫ С САМОСОГЛАСОВАННЫМ ИСТОЧНИКОМ И ЕГО ОБОБЩЕНИЙ МЕТОДОМ ОБРАТНОЙ СПЕКТРАЛЬНОЙ ЗАДАЧИ

01.01.02 – Дифференциальные уравнения и математическая физика

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ФИЗИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ургенч – 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при министерстве Высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № B2023.4.PhD/FM952.

Диссертация выполнена в Ургенчском государственном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.ik-mat.urdu.uz) и на Информационно-образовательном портале “ZiyoNet” (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	**Бабажанов Базар Атажанович** доктор физико-математических наук, доцент
Официальные оппоненты:	**Яхшимуратов Алишер Бекчанович** доктор физико-математических наук
	Бабаджанова Айгул Камилджановна доктор философии физико-математических наук (PhD)
Ведущая организация:	**Самаркандский государственный универс**

Защита диссертации состоится “____” ____________ ____года в _____ часов на заседании Научного совета PhD.03/30.12.2019.FM.55.01 при Ургенчском государственном университете (Адрес: 220100, г.Ургенч, ул. Х. Алимджана, дом 14. Тел:(+99862) 224-66-11, факс: (+99862) 224-67-00, e-mail: ik-mat.urdu@umail.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ургенчского государственного университета (зарегистрирована за №____). (Адрес: 220100, г.Ургенч, ул. Х. Алимджана, дом 14. Тел:(+99862) 224-66-11, факс: (+99862) 224-67-00).

Автореферат диссертации разослан “____” ____________ ____года.
(протокол рассылки №____ от “____” ____________ ____года).

Г.У. Уразбоев
Председатель Научного совета по присуждению ученой степени, д.ф-м.н.

А.А. Реймберганов
Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученой степени, к.ф-м.н.

А.Б. Яхшимуратов
Заместитель председателья Научного семинара при научном совете по присуждению ученой степени, д.ф-м.н.

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации.

Многие научные и практические исследования, проводимые в мировом масштабе, в большинстве случаев задачи математической физики и квантовой механики представляются математическими моделями, представленными дифференциально-разностными уравнениями. Нелинейные уравнения этого типа, такие как цепочка Тоды, дифференциально-разностное уравнение Шредингера и цепочка Абловица-Ладика, широко используются в таких областях, как квантовая механика, нелинейная оптика и физика плазмы. При интегрировании таких уравнений большое значение имеет использование методов прямых и обратных задач спектральной теории конечно-разностных операторов. Поэтому интегрирование дифференциально-разностных уравнений методом прямых и обратных задач спектральной теории разностных операторов остается одной из важных задач в этой области.

В настоящее время методы спектральной теории конечно-разностных операторов служат важным математическим инструментом при исследовании физических моделей. При исследовании процессов распространения волн, происходящих в областях физики плазмы, нелинейной оптики и ядерной физики, возникает необходимость учета дополнительных эффектов окружающей среды и необходимость изучения различной динамики солитонных волн. В качестве математической модели этих процессов рассматриваются начально-краевые задачи для дифференциально-разностных уравнений с самосогласованным источником. Некоторые решения этих уравнений представляют собой солитонные волны. Поэтому в задачи исследования входит поиск решения уравнения типа Тоды, начально-краевой задачи для уравнения Тоды с самосогласованным источником и задача Коши для обобщенного уравнения Тоды с самосогласованным источником.

В нашей стране особое внимание уделяется разработке и применению современных математических методов для решения прикладных задач математической физики, имеющих практическое и фундаментальное значение. В частности, внимание уделяется исследованию прямых и обратных спектральных задач теории рассеяния для дифференциальных и конечно-разностных операторов, а также практическим задачам дифференциальных уравнений в частных производных. В результате были получены значительные результаты по интегрированию начально-краевых задач для нелинейных эволюционных уравнений, имеющих практическое и фундаментальное значение, с использованием метода прямых и обратных спектральных задач. Проведение исследований на уровне международных стандартов в области математики, физики и современных методов математической физики является одной из основных задач научноисследовательских и высших учебных заведений[2]. В рамках реализации указа важное значение имеет развитие теорию прямых и обратных спектральных задач для дифференциальных и конечно-разностных операторов, изучение и исследование конечно-разностные уравнения с самосогласованными источниками.

